

Oriental Journal of Philology**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**NUCLEAR AND PERIPHERAL LAYERS OF THE PHRASEOSEMANTIC FIELD IN ENGLISH AND UZBEK****Zulxumor Mirzayeva***Lecturer at Andijan State Institute of Foreign Languages*zulxumorm.1990@gmail.com*Andijan, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: phraseosemantic field, nuclear layer, peripheral layer, phraseology, semantic hierarchy, comparative linguistics, linguocultural factor, structural model.

Received: 19.02.26**Accepted:** 20.02.26**Published:** 21.02.26

Abstract: This article examines the nuclear and peripheral layers of the phraseosemantic field in English and Uzbek from structural and comparative perspectives. The main aim of the study is to identify the internal hierarchical organization of phraseological units, determine the degree of their semantic weight, and analyze the functional features of the central and peripheral zones. The research employs componential analysis, semantic grouping, comparative method, and modeling. The results show that in both languages the phraseosemantic field has an internal stratification: the nuclear zone consists of stable units with high semantic density, while the peripheral layer includes metaphorical, expressive, and contextually active units. The comparative analysis made it possible to reveal both the common structural features of the phraseosemantic system and its national-specific characteristics.

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA FRAZEOSEMANTIK MAYDONNING YADRO VA PERIFERIK QATLAMLARI**Zulxumor Mirzayeva***Andijon davlat chet tillari instituti o'qituvchisi*zulxumorm.1990@gmail.com*Andijon, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so'zlar: frazeosemantik maydon, yadro qatlam, periferik qatlam, frazeologiya,

Annotatsiya: Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillarida frazeosemantik maydonning

semantik ierarxiya, qiyosiy tilshunoslik, lingvokulturologik omil, struktural model.

yadro va periferik qatlamlari strukturaviy va qiyosiy jihatdan tadqiq etiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi frazeologik birliklarning ichki ierarxik joylashuvini aniqlash, ularning semantik og'irlik darajasini belgilash hamda markaziy va periferik zonalarining funksional xususiyatlarini tahlil qilishdan iborat. Ishda komponent tahlil, semantik guruhlash, qiyosiy metod va modellashtirish usullaridan foydalanildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, har ikki tilda frazeosemantik maydon ichki qatlamlarga ega bo'lib, yadro zonasi barqaror va yuqori semantik zichlikka ega birliklardan tashkil topadi, periferik qatlam esa metaforik, ekspressiv va kontekstual jihatdan faol birliklarni qamrab oladi. Qiyosiy tahlil frazeosemantik tizimning umumiy struktural belgilarini hamda milliy xususiyatlarini aniqlash imkonini berdi.

ЯДЕРНЫЕ И ПЕРИФЕРИЙНЫЕ СЛОИ ФРАЗЕОСЕМАНТИЧЕСКОГО ПОЛЯ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Зулхумор Мирзаева

Преподаватель

Андижанского государственного института иностранных языков

zulxumorm.1990@gmail.com

Андижан, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые	слова:	Аннотация:
фразеосемантическое поле, ядерный слой, периферийный слой, фразеология, семантическая иерархия, сопоставительное языкознание, лингвокультурологический фактор, структурная модель.		В данной статье структурно-сопоставительным методом исследуются ядерные и периферийные слои фразеосемантического поля в английском и узбекском языках. Основная цель исследования заключается в определении внутренней иерархии фразеологических единиц, установлении степени их семантической значимости, а также анализе функциональных особенностей центральных и периферийных зон. В работе использованы методы компонентного анализа, семантической группировки, сопоставительного анализа и моделирования. Результаты показали, что в обоих языках фразеосемантическое поле имеет внутреннюю стратификацию: ядро представлено устойчивыми единицами с высокой семантической плотностью, тогда как периферийный слой охватывает метафорические, экспрессивные и

контекстуально активные единицы.
Сопоставительный анализ позволил
выявить как общие структурные признаки
фразеосемантической системы, так и её
национально-специфические особенности.

Kirish. Frazeologik birliklar til tizimining semantik jihatdan murakkab va zich qatlamini tashkil etadi. Ular nominativ vazifa bilan cheklanmay, milliy tafakkur va ijtimoiy tajribaning barqaror ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Zamonaviy tilshunoslikda frazeologiyani alohida birliklar majmui sifatida emas, balki o'zaro bog'langan semantik tizim sifatida talqin qilish tamoyili shakllangan. Shu nuqtai nazardan, frazeosemantik maydon tushunchasi ilmiy muomalada muhim nazariy kategoriya sifatida qaraladi [1].

Frazeosemantik maydon ma'lum konseptual markaz atrofida birlashgan frazeologik birliklar majmuasini anglatadi. Bu majmua ichki ierarxik tuzilishga ega bo'lib, unda semantik jihatdan barqaror, yuqori qo'llanish chastotasiga ega birliklar markaziy zonani tashkil etadi. Kontekstual yoki ekspressiv jihatdan faol bo'lgan birliklar esa periferik zonada joylashadi [2]. Mazkur model frazeologik tizimning ichki tartibini aniqlash va semantik og'irlik darajasini belgilash imkonini beradi.

Ingliz va o'zbek tillari tipologik jihatdan turlicha bo'lsa ham, ularning frazeologik tizimida strukturaviy o'xshashliklar mavjud. Har ikki tilda ham frazeosemantik maydon ichki qatlamlarga ajraladi, biroq ularning shakllanishi milliy madaniyat, tarixiy taraqqiyot va kommunikativ ehtiyojlarga bog'liq holda kechadi. Shu bois mazkur maydonning yadro va periferik qatlamlarini qiyosiy o'rganish til tizimining ichki mexanizmlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Tadqiqotning asosiy vazifasi ingliz va o'zbek tillarida frazeosemantik maydonning yadro va periferik qatlamlarini aniqlash, ularning semantik xususiyatlarini tavsiflash hamda qiyosiy jihatdan umumiy va milliy belgilarini ko'rsatishdan iborat.

Asosiy qism. Mazkur tadqiqot uchun ingliz va o'zbek tillarining izohli hamda frazeologik lug'atlaridan, shuningdek badiiy adabiyot va ommaviy nutq namunalari tanlab olingan 320 dan ortiq frazeologik birlik asos qilib olindi. Tanlov jarayonida birliklarning barqarorligi, semantik yaxlitligi, qo'llanish chastotasi va konseptual umumlashma hosil qila olish qobiliyati mezon sifatida belgilandi.

Tahlil bir necha bosqichda amalga oshirildi. Avvalo, komponent tahlil usuli yordamida har bir frazeologik birlik tarkibidagi asosiy semantik segmentlar ajratildi. Masalan, ingliz tilidagi "keep one's word" birligi tarkibida sadoqat, barqarorlik va ijtimoiy ishonchlilik semalari aniqlanadi. O'zbek tilidagi "so'zi bir" birligida ham xuddi shunday semantik segmentlar mujassam

bo'lib, ular normativ axloqiy mezonni ifodalaydi. Shu tarzda, frazeologik birliklarning ichki semantik yadrosi belgilandi.[9]

Keyingi bosqichda birliklarning semantik og'irlik darajasi aniqlanib, ular markaziy va periferik zonalarga taqsimlandi. Markaziy qatlamga yuqori qo'llanish darajasiga ega, umumlashgan ma'no bildiruvchi va konseptual jihatdan barqaror birliklar kiritildi. Masalan, ingliz tilida "stand firm, play fair, tell the truth" kabi birliklar keng kommunikativ vaziyatlarda qo'llanadi va umumlashgan normativ tushunchani bildiradi. O'zbek tilida halol mehnat qilmoq, elga xizmat qilmoq, ko'ngli pok kabi birliklar ham barqaror ijtimoiy qadriyatni ifodalovchi yadro birliklar sifatida baholandi.

Periferik qatlam esa kontekstual faollikka ega, metaforik yoki ekspressiv jihatdan murakkab birliklarni qamrab oldi. Masalan, ingliz tilidagi "a dark horse" yoki "big fish: birliklari kontekstga bog'liq holda turlicha baholanishi mumkin. O'zbek tilida "tagi teshik shippak, og'zi qulog'ida" kabi birliklar obrazlilik va subyektiv munosabatni kuchli ifodalaydi. Shunday qilib, metodik bosqichlar frazeosemantik maydonning yadro va periferik qatlamlarini aniq ajratish hamda ularning semantik farqlarini ilmiy asoslash imkonini berdi. **1-rasm. Frazeosemanyik maydon modeli**



modeli

Qiyosiy tahlil jarayonida, ingliz va o'zbek tillaridagi semantik guruhlar o'zaro solishtirildi. Har bir til tizimida markaziy va periferik birliklarning nisbatlari aniqlanib, strukturaviy o'xshashlik va farqlar tavsiflandi. Metodologik asos sifatida strukturaviy semantika, maydon nazariyasi va lingvokulturologik yondashuv tamoyillaridan foydalanildi [1].

Tadqiqot natijalari. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, har ikki tilda frazeosemantik maydon ichki qatlamlarga ega bo'lib, markaziy zona semantik jihatdan umumlashgan va barqaror birliklardan tashkil topadi. Ingliz tilida yadro qatlamga "keep one's word, clean hands, stand on one's own feet" kabi birliklar kiradi. Ushbu frazeologizmlar umumlashgan axloqiy va ijtimoiy konseptlarni ifodalaydi hamda uslubiy jihatdan neytral qo'llanishi bilan ajralib turadi. O'zbek tilida esa "so'zi bir, qo'li pok, elga xizmat qilgan" kabi birliklar markaziy semantik invariantni namoyon etadi. Dissertatsiyada qayd etilganidek, yadro birliklari ma'noviy barqarorligi va yuqori qo'llanish chastotasi bilan farqlanadi.[9]

Yaqin periferiya qatlamida esa asosiy denotativ sema saqlangan holda konnotativ boyish kuzatiladi. Masalan, ingliz tilida "a heart of gold" birligi ezgulik konseptini metaforik qobiq orqali ifodalaydi. O'zbek tilida "ko'ngli ochiq" birligi ham markaziy ijobiy semani saqlagan holda

obrazlilikni kuchaytiradi. Bu qatlam yadro va uzoq periferiya o'rtasida bog'lovchi vazifa bajarishi ilmiy asoslangan .[2]

Uzoq periferiya esa ekspressiv va kinoyaviy birliklar bilan tavsiflanadi. O'zbek tilida "tagi teshik shippak, besh barmog'ini og'ziga tiqmoq" kabi birliklar shaxsga nisbatan subyektiv munosabatni bildiradi

Ingliz tilida "cold fish" yoki "big shot" kabi birliklar ham kontekstga bog'liq holda baholovchi yuklama kasb etadi.[3]

Shunday qilib, konkret misollar yadro, yaqin periferiya va uzoq periferiya qatlamlarining semantik va funksional farqlarini yaqqol namoyon etadi hamda frazeosemantik maydonning dinamik tabiatini tasdiqlaydi.

Qiyosiy natijalar ingliz va o'zbek tillarida yadro va periferik qatlamlar mavjudligi jihatidan umumiylik borligini ko'rsatsa-da, biroq ularning shakllanish mezonlari va konseptual yo'nalishlari milliy madaniyat bilan bog'liq holda farqlanadi. Ingliz tilida abstrakt umumlashma yuqoriroq darajada namoyon bo'lsa, o'zbek tilida ijtimoiy va ma'naviy tajriba bilan bog'liq birliklar markaziy o'rinni egallaydi.

Olingan natijalar frazeosemantik maydonning ichki tuzilishi tizimli va ierarxik xarakterga ega ekanini tasdiqlaydi. Yadro qatlam til tizimida barqaror, yuqori umumlashgan va keng qo'llanishga ega birliklardan tashkil topadi. Bunday birliklar semantik jihatdan zich bo'lib, ma'no markazini hosil qiladi. Masalan, ingliz tilida "keep one's word, play fair, stand firm" kabi birliklar umumlashgan axloqiy va ijtimoiy mezonni ifodalaydi. Ular turli diskurs turlarida uslubiy jihatdan neytral qo'llanadi va barqaror semantik invariantga ega. O'zbek tilida esa "so'zi bir, halol mehnat qilmoq, elga yuz tutmoq" kabi birliklar markaziy qatlamni tashkil etadi. Bu frazeologizmlar jamiyat tomonidan e'tirof etilgan normativ qadriyatlarni ifodalaydi hamda keng kommunikativ maydonda faol ishlatiladi.

Periferik qatlam esa semantik jihatdan murakkabroq, ko'proq obrazlilik va kontekstual o'zgaruvchanlik bilan tavsiflanadi. Ingliz tilida "a dark horse" yoki "big fish in a small pond" kabi birliklar metaforik asosga ega bo'lib, ma'no intensivligi vaziyatga qarab o'zgaradi.[11] O'zbek tilida tagi teshik shippak, ko'zi ochiq, besh qo'l barobar emas kabi birliklar ham ekspressiv va obrazli xarakterga ega. Bu qatlamdagi birliklar ma'no intensivligi va funksional yuklamasiga ko'ra markaziy zonaga yaqinlashishi yoki undan uzoqlashishi mumkin.

Ingliz va o'zbek tillarini qiyosiy o'rganish shuni ko'rsatadiki, strukturaviy model umumiy bo'lsa-da, konseptual ustuvorlik farqlanadi. Ingliz tilida "self made man, stand on one's own feet" kabi birliklar shaxsiy mustaqillikni markazga olib chiqsa, o'zbek tilida "elga xizmat qilgan, yurtga sodiq" kabi birliklar jamoaviy va ma'naviy qadriyatlarni markaziy qatlamga joylashtiradi. Bu farq frazeosemantik maydonning milliy madaniyat bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi.

Periferik qatlamning dinamik xususiyati ham alohida e'tiborga loyiq. Ayrim frazeologik birliklar nutq jarayonida semantik og'irlik darajasini o'zgartira oladi. Diskursiv kontekst, kommunikativ maqsad va uslubiy vaziyat bu jarayonga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Masalan, ingliz tilidagi "big fish" birligi oddiy vaziyatda neytral yoki hatto ijobiy ma'noni bildirishi mumkin, biroq kinoyaviy kontekstda u salbiy yoki istehzoli baho kasb etadi. Xuddi shuningdek, "cold heart" birligi badiiy matnda tragik obraz yaratish vositasi bo'lsa, publitsistik nutqda axloqiy qoralash funksiyasini bajaradi.

O'zbek tilida ham shunga o'xshash hodisa kuzatiladi. Masalan, "og'zi qulog'ida" birligi oddiy nutqda quvonchni ifodalasa, ayrim kontekstlarda istehzoli ohangni ham anglatishi mumkin. "Qo'li uzun" birligi esa vaziyatga qarab salbiy ma'noda poraxo'rlikni yoki kinoyaviy tarzda imkoniyat kengligini bildiradi. Demak, periferik qatlamdagi birliklarning semantik yuklamasi qat'iy emas, balki kontekstual omillar asosida shakllanadi.

Bundan tashqari, ayrim frazeologik birliklar tarixiy taraqqiyot jarayonida semantik maqomini o'zgartirishi mumkin. Masalan, ingliz tilida ilgari ko'proq badiiy uslubga xos bo'lgan silver lining birligi hozirgi ommaviy nutqda keng qo'llanib, barqaror ijobiy konseptni ifodalovchi markaziy birlikka yaqinlashgan. Xuddi shuningdek, break the ice iborasi dastlab metaforik obraz sifatida faol bo'lgan bo'lsa, bugungi kommunikativ amaliyotda u ijtimoiy muloqot boshlanishini bildiruvchi umumlashgan ma'no kasb etib, semantik jihatdan barqarorlashgan.[10]

O'zbek tilida ham vaqt o'tishi bilan frazeologik birliklarning semantik maqomi o'zgarib boradi. Masalan, yelkasi keng birligi dastlab shaxsning jismoniy belgisini bildirgan bo'lsa, hozirgi nutqda u ijtimoiy mavqei mustahkam, ta'sir doirasi keng shaxsni ifodalovchi umumlashgan baholash mezoniga aylangan.[11] Bu birlik ommaviy nutqda faol qo'llanayotgani sababli markaziy qatlamga yaqinlashgan deb baholash mumkin. Xuddi shuningdek, gapida turmoq iborasi hozirgi kommunikativ amaliyotda ishonchlilik va mas'uliyat belgisi sifatida keng ishlatiladi va barqaror semantik og'irlikka ega.

Aksincha, tarixiy yoki folklor matnlarida uchraydigan "yuziga qizil qon yugurmoq" yoki "ko'ngliga qil sig'maslik" kabi birliklar zamonaviy og'zaki nutqda kam qo'llanadi. Ular semantik jihatdan tushunarli bo'lsa-da, diskursiv faolligi pastligi sababli periferiyaning chekka qatlamiga surilgan. Bunday birliklar faqat badiiy yoki stilistik kontekstda jonlanadi.[5]

Demak, frazeologik birlikning markaz yoki periferiyaga mansubligi faqat ichki semantik tuzilishga emas, balki qo'llanish chastotasi, ijtimoiy ehtiyoj va kommunikativ faoliyat darajasiga ham bog'liq. Shu jihatdan frazeosemantik maydon doimiy ravishda qayta shakllanib boradigan, tarixiy va ijtimoiy jarayonlarga moslashuvchan tizim hisoblanadi.

Media diskurs, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy kommunikatsiya vositalari frazeologik birliklarning semantik maqomiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Axborot makonida tez-tez

takrorlanadigan iboralar keng auditoriya tomonidan qabul qilinib, asta-sekin normativ tus oladi. Masalan, o'zbek media nutqida "ochiq muloqot, ochiq siyosat" kabi birikmalar dastlab publitsistik kontekstda faol qo'llanilgan bo'lsa, bugungi kunda ular barqaror semantik birlik sifatida keng ijtimoiy baholash mezonini ifodalaydi. Xuddi shuningdek, ingliz tilida "new normal" iborasi qisqa vaqt ichida ommaviy kommunikatsiya vositalari orqali keng tarqalib, umumlashgan konseptni bildiruvchi barqaror frazeologik birlik maqomini oldi.[12]

Media makonida faol ishlatiladigan iboralar ko'p takrorlanish natijasida semantik jihatdan mustahkamlanadi va markaziy qatlamga yaqinlashadi. Bunday birliklar tezkor kommunikativ ehtiyojni qondirishi sababli keng auditoriyada tan olinadi. Aksincha, zamonaviy nutqda kam uchraydigan yoki tarixiy stilistik qatlamga mansub iboralar asta-sekin passivlashadi. Masalan, o'zbek tilida folklor yoki mumtoz matnlarga xos ayrim obrazli iboralar kundalik nutqda deyarli qo'llanmaydi va periferiyaning chekka qismiga suriladi.

Demak, ommaviy kommunikatsiya vositalari frazeologik tizimning ichki ierarxiasini qayta shakllantirishda faol omil sifatida namoyon bo'ladi. Qo'llanish chastotasi ortgan sari birlikning semantik og'irligi oshadi, diskursiv faolligi kamaygan sari esa u tizimning chekka qatlamiga siljiydi.[3]

Shu bois frazeosemantik maydon qat'iy va o'zgarmas tuzilma emas. U tarixiy, ijtimoiy va kommunikativ omillar ta'sirida qayta tashkil topib boradigan, doimiy harakatdagi semantik tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Natijalar maydon nazariyasining frazeologiya sohasida samarali qo'llanilishini tasdiqlaydi. Yadro va periferik qatlamlarni aniqlash frazeologik birliklarning semantik va funksional o'rnini aniqlashtirishga xizmat qiladi. Bu esa qiyosiy tilshunoslik hamda lingvokulturologik tadqiqotlar uchun metodologik asos yaratadi.[5]

Xulosa. Tadqiqot natijalari asosida ingliz va o'zbek tillarida frazeosemantik maydonning yadro va periferik qatlamlari mavjudligi ilmiy jihatdan asoslandi. Har ikki til tizimida markaziy zona semantik jihatdan barqaror va umumlashgan birliklardan iborat bo'lib, periferik qatlam kontekstual va ekspressiv xususiyatlarga ega birliklarni qamrab oladi.

Qiyosiy tahlil frazeosemantik tuzilmaning umumiy strukturaviy modeli mavjudligini ko'rsatdi. Shu bilan birga, markaziy qatlamni shakllantiruvchi birliklarning konseptual mazmuni milliy madaniyat, tarixiy tajriba va ijtimoiy qadriyatlar bilan belgilanadi. Bu holat frazeologik tizimning lingvokulturologik mohiyatini tasdiqlaydi.

Frazeosemantik maydon dinamik xarakterga ega bo'lib, diskursiv jarayonda birliklarning semantik og'irlik darajasi o'zgarishi mumkin. Mazkur xususiyat frazeologiyani nafaqat strukturaviy, balki funksional jihatdan ham o'rganish zarurligini ko'rsatadi.[6]

Shunday qilib, frazeosemantik maydonning yadro va periferik qatlamlarini qiyosiy tahlil qilish frazeologiyaning ichki ierarxiyasini aniqlash, til tizimidagi semantik markazni belgilash va milliy xususiyatlarni ochib berish imkonini beradi. Ushbu tadqiqot natijalari qiyosiy tilshunoslik, lingvokulturologiya va frazeologiya nazariyasini rivojlantirishda nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Апресян Ю. Д. Лексическая семантика. Синонимические средства языка. – Москва: Наука, 1974.
2. Добровольский Д. О. Когнитивные основы фразеологии. – Москва: Гнозис, 2006.
3. Кёвечеш З. Метафора: практическое введение. – Оксфорд: Oxford University Press, 2010.
4. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980.
5. Маслова В. А. Лингвокультурология. – Москва: Академия, 2001.
6. Mahmudov N. Til va madaniyat masalalari. – Toshkent: Fan, 2010.
7. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.
8. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik asoslari. – Toshkent: Akademyashr, 2013.
9. Шанский Н. М. Фразеология современного русского языка. – Москва: Высшая школа, 1985.
10. Телия В. Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – Москва: Школа «Языки русской культуры», 1996.
11. Umarxo'jayev M. E. Qiyosiy frazeologiya asoslari. – Toshkent: Fan, 2004.
12. Виноградов В. В. Основные типы фразеологических единиц в русском языке. – Москва: Наука, 1977.